

PAPER

SUDLANGANLIK TUSHUNCHASI, HUQUQIY AHAMIYATI, TUGALLANISHI VA OLIB TASHLANISHI

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna^{1,*} and Kalbaeva Eldora Uzaqbaevna²

¹Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Yuridika fakulteti 2-bosqich talabasi

²Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Yuridika fakulteti 3-bosqich talabasi

* dawletbaevaaynuro@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada sudlanganlik tushunchasi, uning jinoiy-huquqiy ahamiyati, bekor bo'lishi ya'ni tugallanishi va olib tashlanishi haqida ma'lumotlar ta'kidlab o'tilgan.

Key words: sudlanganlik, olib tashlanishi, tugallanishi, sud ajrimi, jinoiy-huquqiy ahamiyati.

Kirish

Jinoyat qonunchiligida o'z o'rniga ega bo'lgan institutlardan biri sudlanganlik institutidir. Sudlanganlik tushunchasiga nazariyada bir qancha ta'riflar keltirilgan.

S.V.Borodinning ta'kidlashicha, Umumiy qismda ko'rsatilgan sudlanganlik holati Maxsus qismning alohida moddalarida aniqlashtiriladi[1].

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksiga muvofiq sudlanganlik shaxsning sodir etgan jinoyati uchun hukm etilganligidan kelib chiqadigan huquqiy holatdir.

Sudlanganlik tushunchasiga ta'rif Rossiya Federatsiyasining Jinoyat Kodeksida ham berilgan. Rossiya Federatsiyasining JK 86-moddasida jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilgan shaxs sudning aybdor deb topilgan hukmi qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab sudlanganlik bekor qilingan yoxud bekor qilingan vaqtgacha sudlangan deb hisoblanadi. Sudlanganlik ushbu kodeksga muvofiq jinoyatlar takrorlanganda va jazo tayinlashda hisobga olinadi[2].

Rossiya Federatsiyasining Jinoyat Kodeksi 18-moddasiga asosan, sudlanganlik jinoyatlar takrorlanishining majburiy belgisidir va jazo tayinlashda hisobga olinadi. Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligida sudlanganlik muhim bo'lib, bir qancha cheklolarga sabab bo'ladi. Masalan, sudlanganlik holatida bo'lgan shaxs mashinani boshqarish huquqiga ega bo'lmaydi[3].

Mazkur moddaga binoan ijtimoiy xavfli qilmishning takrorlanishini tan olishda quyidagilarni hisobga olmaymiz:

- qasddan kichik jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganlik
- voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun sudlanganlik.

O'zbekiston Respublikasi "Sudlanganlik holati tugallanishi va olib tashlanishiga oid qonunchilikni qo'llash bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida" Oliy Sud Plenumining qarori 1-bandida sudlanganlik tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Sudlarga tushuntirilsinki, sudlanganlik shaxsning, unga sud hukmi bilan jazo qo'llanilishidan kelib chiqadigan huquqiy holati bo'lib, mazkur shaxsga nisbatan jinoyat-huquqiy va umumhuquqiy xususiyatga ega muayyan salbiy oqibatlar kelib chiqishida namoyon bo'ladi.

Shaxs Jkning maxsus qism moddasida nazarda tutilgan jinoyat tarkibining barcha belgilari mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etganlikda aybdor, deb topilib, ayblov hukmi elon qilingandan so'ng sudlangan, deb hisoblanadi. Ammo hukm qilinishning har qanday fakti ham sudlanganlikni keltirib chiqarmaydi[4].

Shaxsga hukm tayinlash faqat jazo tayinlashda emas, jazodan ozod qilishda ham qo'llaniladi. Jinoyat Protsessual Kodeksiga muvofiq hukm apellyatsiya tartibida shikoyat berish va protest berish muddati o'tgandan keyin kuchga kiradi. Apellyatsiya yoki protest berilgan bo'lsa va hukm bekor qilinmagan bo'lsa, yuqori turuvchi sud tomonidan ko'rib chiqilgan kundan boshlab kuchga kiradi. Sud tomonidan jazodan ozod qilingan shaxs sudlanmagan hisoblanadi. JK 87-88-moddalariga asosan shaxsga tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llasa yoki voyaga yetmagan shaxslarga tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilsa

sudlanganlik holatini keltirib chiqarmaydi.

Sudlanganlikda shaxsning umumhuquqiy va jinoiy-huquqiy ahamiyati nazarda tutiladi. Bunda jinoiy-huquqiy ahamiyati kattaroq, chunki:

- shaxs muqaddam sudlangan bo'lsa, xavfli yoki o'ta xavfli retsivist deb topilishiga ta'sir ko'rsatadi;
- sudlanganlik ijtimoiy xavfli qilmishni kvalifikatsiya qilishga ta'sir ko'rsatadi;
- ilgari ham qasddan jinoyat sodir etgan shaxsning takroran yoki qasddan yangi jinoyat sodir etishi;
- sudlanganlik holatining mavjud bo'lishi shaxsni jazodan ozod qilishga ta'sir qiladi;
- sudlanganlik ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashda uning ijro etish muassasini aniqlashda ta'sir qiladi.

Sudlanganlik holatining bekor bo'lishi bilan uning barcha jinoiy-huquqiy, umumhuquqiy oqibatlari ham bekor bo'ladi. Agarda shaxsning sudlanganligi olib tashlangan yoki tugallangan bo'lsa, shaxs yangi jinoyat sodir etsa uni kvalifikatsiya qilishda, og'irlashtiruvchi holat sifatida tan olishda yoki retsivist jinoyat deb topish uchun hech qanday huquqiy ahamiyatga ega emas.

Jazoni o'tagan, ammo qonunning o'zgarishi bilan bunday qilmish jinoyat deb hisoblanmaydigan taqdirda, shuningdek sodir qilingan jinoyat uchun tayinlangan jazoni o'tab bo'linishi bilan sudlanganlik belgilangan bo'lsa shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi.

Qonunda belgilangan muddatlarning o'tishi bilan sudlanganlik tamom bo'ladi. Jkning 78-79-moddalariga muvofiq sudlanganlikning tamom bo'lishi ikki ko'rinishda bo'ladi:

- sudlanganlik holatining tamomlanishi (avtomat turda)
- sudlanganlikning olib tashlanishi (sud tomonidan).

Sudlanganlik holatining tugallanishi deganda, muayyan bir muddatlarning o'tishi bilan mazkur masalaga oid sudning maxsus qarori qabul qilinmasdan huquqiy oqibatlarning va cheklovlarining tamomlanishi tushiniladi. Sudlanganlik holati tamomlanganda shaxs sudlanmagan deb hisoblanadi[5].

O'zbekiston Respublikasi JK 78-moddasiga asosan quyidagi holatlarda sudlanganlik holati tugallanadi:

- a) shartli hukm qilinganlarga nisbatan — sinov muddati tugagan kundan boshlab;
- b) majburiy jamoat ishlari, xizmat bo'yicha cheklash yoki intizomiy qismga jo'natish tarzidagi jazolarini o'tab chiqqach;
- v) jarima jazosi ijro etilgan kundan keyin, shuningdek muayyan huquqdan mahrum qilish yoki axloq tuzatish ishlari jazolari o'talganidan keyin bir yil o'tgach;
- g) ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin — ikki yil o'tgach; g) ozodlikni cheklash jazosi o'talganidan keyin — ikki yil o'tgach;
- d) besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin — to'rt yil o'tgach;
- e) besh yildan ortiq, lekin o'n yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin-yetti yil o'tgach;
- j) o'n yildan ortiq, lekin o'n besh yildan ko'p bo'lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi o'talganidan keyin-o'n yil o'tgach.

O'n besh yil va undan ortiq muddatga hukm qilinganlar ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqandan keyin, shuningdek, o'ta xavfli retsivist deb topilgan shaxslarga nisbatan sudlanganlik holati tugallanmaydi. Ularga nisbatan sudlanganlik holati faqat JK 79-moddasiga asosan olib tashlanishi mumkin.

Sudlanganlikning olib tashlanishi sudlanganlikning tugallanish muddati o'tmasdan ilgari bekor qilinishidir. Sudlanganlikni olib tashlash sud ajrimi, afv etish yoki amnistiya akti orqali amalga oshirilishi mumkin.

Agar shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab bo'lganidan keyin unga nisbatan ma'muriy jazo yoki intizomiy ta'sir choralari qo'llanilmagan bo'lsa, jamoat birlashmasi,

fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organi, jamoa yoki jazoni o'tab chiqqan shaxsning o'zi bergan iltimosnomasiga ko'ra sud ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida yarmi o'tganidan keyin uning sudlanganligini olib tashlashi mumkin. Ushbu Kodeksning 178-184, 185-1852, 189-192-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan shaxslarning sudlanganligi ular davlatga juda ko'p zarar yetkazmaganda, ushbu Kodeksning 78-moddasida nazarda tutilgan muddatlarning kamida to'rttdan bir qismi o'tganidan keyin sud tomonidan olib tashlanishi mumkin. O'n besh yil va undan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan shaxslar hamda o'ta xavfli retsivistlar, agar ular jazoni o'tab chiqqanidan keyin o'n besh yil mobaynida yangi jinoyat sodir etmasalar, sud ularning sudlanganligini olib tashlashi mumkin. Ushbu Kodeksning 13-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda ham sudlanganlik olib tashlanishi mumkin. Sudlanganlik afv etish yoki amnistiya akti asosida ham olib tashlanishi mumkin.

O'n besh yil va undan ko'proq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan shaxslar-uzluksiz bir yoki bir nechta jinoyat sodir etgan shaxslar tushiniladi. Shuningdek, ular sodir etgan jinoyatning bittasi og'ir jinoyat bo'lishi lozim.

Yuqoridagi shaxslarga sudlanganlikni olib tashlashni qo'llash uchun quyidagi belgilar mavjud bo'lishi lozim:

- jazoni o'tab chiqqandan keyin o'n besh yil muddat o'tishi;
- shu muddat ichida qasddan yoki extiyotsizlik orqasidan yangi jinoyat sodir etmasli.

Sudlanganlikni olib tashlash rad etilgan taqdirda, sudyaga bu masalaga doir iltimosnoma bir yil o'tganidan keyingina kiritilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qiladigan bo'lsak, sudlanganlik kvalifikatsiya qilishga, ijro etish muassasini tanlashga ta'sir ko'rsatadi va og'irlashtiruvchi holatga ham olib kelishi mumkin va sudlanganlik ikki shaklda tugallanishi yoki olib tashlanishi orqali bekor bo'ladi.

References

1. Бородин С.В. Общая характеристикаотягчающихумыш-ленного убийства по Ветнамскому законодательству. Т. 1980. -С. 31
2. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/f7d0d38602c1f14284898669538471d7f6b49af5/ Rossiya Federatsiyasi Jinoyat Kodeksi
3. O.S.Toshev. Sudlanganlik tushunchasi va jinoyat-huquqiy ahamiyati. O'quv qo'llanma. Toshkent.2024.
4. M.X.Rustamboev. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh. Umumiy qism. T. "Adolat". 2016.
5. Utemuratova S.SH. Jinoyat huquqi. Umumiy qism.O'quv qo'llanma.T."Metodist nashriyoti".2023.